XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 3-iyun VII-20-60-8-0-K/26 Surxondaryo viloyati

Viloyat hokimligi balansidagi avtomobillarga gaz quyish shoxobchalarining 2026-yil ijara narxlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining salohiyati va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-386-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida” 660-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining salohiyati va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-386-son qaroriga asosan viloyat hokimligining 2026-yil 26-martdagi 15-23/588-son xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat hokimligi balansidagi Angor, Boysun, Jarqo‘rg‘on tumanlari va Termiz shahridagi avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarining 2026-yil ijara narxi ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 3-iyundagi
VII-20-60-8-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat hokimligi balansidagi avtomobillarga gaz quyish shoxobchalarining 2026-yil ijara narxi

(so‘m)

T/r	Manzili	nomlanishi	Xatlovda aniqlangan		2026-yil uchun 1 yillik ijara to‘lovi	Asosiy vosita va kv.metr uchun aloxida 1 oylik ijara to‘lovlari
			maydon (kv.m)	asosiy vosita narxi		
1	**Termiz sh.**	metan	2300,1	973817468,9	1618893183,6	134907765,3
		propan			409003336,9	34083611,4
2	**Jarqo‘rg‘on**	metan	2300,0	1167414873,3	1046178000,0	87181500,0
		propan			490314246,8	40859520,6
3	**Angor**	metan	2000,0	1124882105,0	909720000,0	75810000,0
		propan			472450484,1	39370873,7
4	**Boysun**	metan	2000,0	1220648070,0	726115761,0	75810000,0
		propan			512672189,4	42722682,5
JAMI			**8600,1**	**4486762517,2**	**6185347201,8**	**530745953,5**